XALQ DEPUTATLARI ARNASOY TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-032-3-43-K/24 Arnasoy tumani

Arnasoy tumanining 2025-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-,24-moddalari, Byudjet kodeksining 27-,99-moddalari, “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-son qonuniga va xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-4-032-3-0-K/24-sonli qaroriga muvofiq hamda Jizzax viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 26-dekabrdagi 01-20-08-02-39/186-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Arnasoy Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-sonli qonuni hamda xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-4-032-3-0-K/24-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Arnasoy tumani mahalliy byudjetining 2025-yilgi daromadlari **36 301 393,0 ming so‘m,** respublika byudjetidan tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan transfert miqdori **38 494 307,0 ming so‘m** va xarajatlari esa **74 795 700,0 ming so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek Arnasoy tumani mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **298 000,0 ming so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda 2025-yilda umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy byudjetiga ajratmalar me’yori 2-ilovaga muvofiq, tuman mahalliy byudjetidan 2025-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq, tuman mahalliy byudjetining 2025-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi 4-ilovaga muvofiq, shuningdek tuman byudjeti yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun **784 763,0 ming so‘m** miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 6-ilovaga, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i Z.Ismatov, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining hududlarni kompleks iqtisodiy rivojlantirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (M.Eshboyev), tuman soliq inspeksiyasi (N.Otaqulov) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

8. Qaror rasmiy nashrlarda e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

9. Mazkur qaror “Arnasoy tongi” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin**.**

10. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (I.Avalboyev) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari–tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i Z.Ismatov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi MUSANOV ODIL OLIMOVICH

Xalq deputatlari Arnasoy tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-032-3-43-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Arnasoy tumani mahalliy byudjetining daromadlarining 2025-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T.r.	Daromad turlari	Kontingent reja	Mahalliy reja
JAMI		**49 813 393**	**36 301 393**
1	Foyda solig‘i	1 256 000	0
2	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	6 100 000	0
3	Aylanmadan olinadigan soliq	2 955 000	2 955 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	22 034 000	22 034 000
5	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	75 000	75 000
6	Aksiz solig‘i jami	401 000	401 000
6.1	*alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)*	0	*0*
6.2	*pivo*	0	*0*
6.3	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	*401 000*	*401 000*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	*521 000*	521 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	1 796 000	1 796 000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	1 944 000	1 944 000
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	2 727 393	2 727 393
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	*0*	0
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	*6 267 000*	3 767 000
13	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	18 000	18 000
14	Davlat boji	1 587 000	0
15	Yig‘imlar	549 000	0
16	Jarimalar	1 520 000	0
17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	63 000	63 000

Xalq deputatlari Arnasoy tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-032-3-43-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yilda umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy byudjetlariga ajratmalar me’yori

№	Soliq turlari	Hududlar nomi	Soliq to‘lovchilar	Ajratma me’yori
1	**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i****	Tuman byudjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat byudjetiga	YST	100%
			HST	0%
2	**Foyda solig‘i*****	Tuman byudjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat byudjetiga	YST	100%
			HST	100%
3	**Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)**	Tuman byudjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat byudjetiga	YST	0%
			HST	0%
4	**Pivo**	Tuman byudjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat byudjetiga	YST	0%
			HST	0%
5	**Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i**	Tuman byudjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat byudjetiga	YST	100%
			HST	0%
6	**Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq**	Tuman byudjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat byudjetiga	YST	100%
			HST	0%
7	**Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i**	Tuman byudjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat byudjetiga	YST	100%
			HST	0%

8	**Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq**	Tuman byudjetiga	YST	100%
			HST	100%
		Viloyat byudjetiga	YST	0%
			HST	0%
9	**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq**	Tuman byudjetiga	YST	100%
			HST	100%
		Viloyat byudjetiga	YST	0%
			HST	0%
10	**Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar**	Tuman byudjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat byudjetiga	YST	100%
			HST	0%
11	**Aylanmadan soliq**	Tuman byudjetiga		100%
		Viloyat byudjetiga		0%
12	**Davlat boji**	Tuman byudjetiga		0%
		Viloyat byudjetiga		100%
13	**Jarima**	Tuman byudjetiga		0%
		Viloyat byudjetiga		100%
14	**Yig‘imlar**	Tuman byudjetiga		0%
		Viloyat byudjetiga		100%
15	**Davlat aktivlarini sotishdan tushum (Xususiylashtirish)**	Tuman byudjetiga		50%
		Viloyat byudjetiga		50%
16	**Mulk va yer huquqini auksion orqali sotishdan tushum**	Tuman byudjetiga		50%
		Viloyat byudjetiga		50%

Izoh: HST - Hududiy soliq to‘lovchilar, YST - Yirik soliq to‘lovchilar

* *Mazkur soliq turlaridan tashqari boshqa daromadlar (3450950, 3450960 va boshqalar) Iqtisodiyot va moliya vazirligi belgilab bergan tartibda shahar (tumanlar) va viloyat byudjetlariga ajratma qilinadi.*

** *Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari.*

*** *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatgi amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari*

Xalq deputatlari Arnasoy tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-032-3-43-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2025-yil uchun Arnasoy tumani byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Summa
Xarajatlar miqdori, jami		**74 795 700.0**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	18 439 692.0
	shundan:	
	"Mening maktabim"	1 263 927.0
2	Tibbiyot birlashmasi	
	shundan:	
	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi markazi	
3	Madaniyat bo‘limi	3 037 071.0
4	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	1 790 000.0
5	Sport bo‘limi	4 992 508.0
6	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 669 143.0
7	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	1 955 033.0
8	Irrigatsiya bo‘limi	958 153.0
9	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	2 194 935.0
10	Davlat soliq inspeksiyasi	
11	Hokimiyat	23 113 371.0
	shundan:	
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	*63 640.0*
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	*11 550.0*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*16 858 606.0*
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*617 231.0*
	Zahira jamg‘armasi	*784 763.0*
12	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	626 575.0
	shundan:	

	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*63 302.0*
	Axborot-kutubxona markazlari	*563 273.0*
13	Hokimyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	16 019 219.0
14	Boshqa tashkilotlar	

Xalq deputatlari Arnasoy tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-032-3-43-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Arnasoy tuman mahalliy byudjetining 2025-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	**Mahalliy byudjetlarning jami daromadlari**	**Shundan,**		**Mahalliy byudjet xarajatlari**
		Mahalliy byudjet daromadlari	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**	
Arnasoy tumani	74 795 700.0	36 301 393.0	38 494 307.0	74 795 700.0

Xalq deputatlari Arnasoy tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-032-3-43-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Arnasoy tumani mahalliy byudjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T.r.	Hudud nomi	Miqdor
1	Arnasoy tumani	298 000.0

Xalq deputatlari Arnasoy tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-032-3-43-K/24 -son qaroriga
6-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T.r.	Hudud nomi	Koeffitsiyent	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (so‘mda)
1	Baxtli MFY	0,74	35 457 840.00
2	Bobur MFY	0,87	41 686 920.00
3	Bo‘ston MFY	0,75	35 937 000.00
4	G‘oliblar MFY	0,87	41 686 920.00
5	G‘afur G‘ulom MFY	0,86	41 207 760.00
6	Gulbahor MFY	0,74	35 457 840.00
7	Do‘stlik MFY	0,73	34 978 680.00
8	Zarafshon MFY	0,73	34 978 680.00
9	Oltin Vodiy MFY	0,86	41 207 760.00
10	Tinchlik MFY	0,73	34 978 680.00
11	Chinobod MFY	0,73	34 978 680.00
12	Cho‘lquvar MFY	0,73	34 978 680.00
13	Yangibo‘ston MFY	0,75	35 937 000.00

Xalq deputatlari Arnasoy tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-032-3-43-K/24 -son qaroriga
7-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T.r.	Hudud nomi	Koeffitsiyent	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (so‘mda)
1	Baxtli MFY	0,70	271,04
2	Bobur MFY	0,90	348,48
3	Bo‘ston MFY	0,72	278,78
4	G‘oliblar MFY	0,90	348,48
5	G‘afur G‘ulom MFY	0,80	309,76
6	Gulbahor MFY	0,70	271,04
7	Do‘stlik MFY	0,70	271,04
8	Zarafshon MFY	0,70	271,04
9	Oltin Vodiy MFY	0,80	309,76
10	Tinchlik MFY	0,70	271,04
11	Chinobod MFY	0,70	271,04
12	Cho‘lquvar MFY	0,70	271,04
13	Yangibo‘ston MFY	0,72	278,78